

INTELLEKTUAL AVLOD – YANGI O'ZBEKISTON GO'ZALLIGINING BUNYODKORI

Qurbonova Malika Salohiddin qizi

Navoiy davlat universitet Tarix fakulteti Falsafa yo'nalishi 1-kurs talabasi

[Tel: +99890-647-72-83](tel:+99890-647-72-83)

Annotatsiya. *Mazkur maqola intellektual avlod orasidagi go'zallik tushunchasining mohiyati va jamiyatda shakllanayotgan qadryatlar tizimi hamda go'zallikning ma'naviy va madaniy ong rivojlanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, go'zallikning shaxs tarbiyasi ijtimoiy munosabatlar va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri ilmiy- nazariy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Intellektual avlod,, jamiyat taraqqiyoti, estetik shaxs tushunchasi, Yangi O'zbekiston, madaniy va ma'naviy ong rivoji.*

Аннотация. *В данной статье анализируется сущность понятия красоты среди интеллектуального поколения, система ценностей, формирующаяся в обществе, а также роль красоты в развитии духовного и культурного сознания. Кроме того, с научно-теоретической точки зрения обосновывается влияние красоты на воспитание личности, социальные отношения и развитие общества.*

Ключевые слова: *интеллектуальное поколение, развитие общества, понятие эстетической личности, Новый Узбекистан, развитие культурного и духовного сознания.*

Annotation. *This article analyzes the essence of the concept of beauty among the intellectual generation, the system of values being formed in society, and the role of beauty in the development of spiritual and cultural consciousness. It also scientifically and theoretically substantiates the influence of beauty on personal upbringing, social relations, and the development of society.*

Keywords: *Intellectual generation, social development, the concept of an aesthetic personality, New Uzbekistan, development of cultural and spiritual consciousness.*

Go'zallik bu tabiatning insoniyatga tuhfa etgan eng buyuk mo'jizalaridan biridir. Lekin go'zallikning eng chiroylisi va mazmunlisi insonda, Olloh insonni mukammal qilib yaratdi. Uni boshqa mahluqotlardan ustun tarzda aql, tafakkur, ong, idrok bilan siyladi. Bir- birini sevsin, e'zoz etsin deya qalbiga mehr- muhabbat soldi. Olloh go'zaldir u go'zallikni xush ko'radi.

1. Go'zallik har bir inson, har bir mavjudotga xos narsa, biroq u har bir sohada va davrda o'ziga xos namayon bo'ladi va rivojlanadi. Misol uchun M. Behbudiyning "Padarkush", A. Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", A. Avloniyning "Biz va siz", Hamzaning "Zaharli hayot" kabi asarlari XX asr boshlarida vujudga keldi va xalqni axloqiy-estetik tarbiyalashda muhim ma'naviy omil bo'lib xizmat qildi.[1]

Bundan ilhomlanib aytish joizki, bizning ajdodlarimizning intellektual bilim va salohiyati biz yoshlarga poydevor bo'ldi va yosh avlod vakillarida ham shunday shijoat bilan Yangi O'zbekistonning har tomonlama go'zalligida qilishi lozim bo'lgan ko'pgina ishlar mavjudligi haqida o'ylab ko'rish kerakligini eslatadi.

2. Muhtaram Yurtboshimizning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida "Haqiqatan ham, biz, ota-onalar, ustoz- murabbiylar sizlarni, butun O'zbekiston yoshlarini Vatanimiz, jamiyatimizning hal qiluvchi kuchi deb bilamiz va sizlar hamisha xalqimizning mana shunday yuksak ishonchiga munosib bo'lasiz, deb ishonamiz" [2] deya aytgan fikrlari yoshlarning ko'zida yosh va qalbida g'urur uyg'otdi desam mubolag'a bo'lmas sababi, bugungi intellektual yosh avlodga bo'lgan shuncha e'tirof va e'tibor Yangi O'zbekiston nafosatga boy go'zallikni, bilimni, qadrllovchi yoshlar qo'lida ekanligiga bir ishonchdir.

3. Vatan ravnaqi avvalo uning farzandlarig, ularning ma'naviy va jismoniy kamolotiga bevosita bog'liq [3]. Shuningdek, intellektual avlod deganda shunchaki, ko'p kitob o'qiydigan yoki oliy ma'lumotga ega bo'lgan yoshlarni emas balki, o'z fikriga, tafakkuriga ega bo'lgan milliy qadriyat va taraqqiyotni uyg'unlashtira oladigan yoshlarni tushunamiz. Sababi, taraqqiyot binosi bilim va tafakkur bilan quriladi.

4. Yangi O'zbekiston go'zalligi avvalo, ma'naviy go'zallik ya'ni halollik, vatanparvarlik, ma'suliyat kabi fazilatlarida aks ettiradi. Ikkinchidan, esa ijtimoiy go'zallikda ya'ni bu adolatli jamiyat, teng imkoniyatlar, qonun ustuvorligi bilan bog'liq. Uchinchidan, innovatsion go'zallik. bu ilm- fan texnologiyalar, kreativ g'oyalar asosida yaratilgan kashfiyotlar va raqamli yechimlarda namayon bo'ladi. Demak, Yangi O'zbekiston go'zalligi aynan shu uch omil uyg'unligida namayon bo'ladi:

- agar ma'naviyat bo'lmasa bilim- xavfli qurolga aylanadi;
- agar adolatli ijtimoiy muhit bo'lmasa- iste'dod so'nadi;
- agar innovatsiya bo'lmasa- jamiyat rivojlanmaydi.

Intellektual avlod esa ana shu uyg'unlikni ta'minlay oladigan asosiy kuchdir.

Xulosa qilib aytganda, intellektual avlod bu shunchaki bir so'z emas, ular o'tmishni qadriyatga, qadriyatni esa taraqqiyotga aylantiradigan bir kuchdir, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashaydigan avloddir. Demak, Yangi O'zbekiston go'zalligining eng mustahkam poydevori- Intellektual avloddir. Go'zallik jamiyat taraqqiyotining rivojiga, uning gurlirab

yashnashi va olamga ma'lum-u mashhur bo'lishiga asosiy omil deb hisoblayman. Ma'naviyat madaniyat tarbiya kabi tushunchalar go'zallik bilan teng ma'npda keladi, agar bu tushunchalar jamiyatda o'rinsiz sifatida qaraladigan bo'lsa jamiyatda parokandalik vujudga kelishi mumkin. Shunday ekan intellektual bilim salohiyati yuqori bo'lgan kelajak vakillarini tarbiyalashni oiladan boshlash va uni jamiyat bo'g'inlari tomon ijobiy yoyish har bir insonning vazifasi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarova . N. Estetika asoslari. - Cho'lpon: Toshkent, 2011. 47- bet
2. Karimov. I. A Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch - T: Ma'naviyat 2008. 73- bet
3. . Mirziyoyev. Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-T: O'zbekiston 2019. 537-bet